MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

“TARIXI FARG‘ONA” – QO‘QON XONLIGI TARIXIGA OID MUHIM TARIXIY MANBA

Zoxid Madraximov,
Namangan davlat universiteti Tarix kafedrasi professori, tarix fanlari nomzodi
zohidmadrahimov1980@mail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mashhur o‘zbek ma’rifatparvari Is’hoqxon To‘ra Ibratning ilmiy-tarixiy merosi va uning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan. Xususan, Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari – Qo‘qon xonligi tarixi haqida muhim manba ekanligi so‘nggi Qo‘qon xoni Xudoyorxon faoliyati bilan bog‘lab ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so`zlar: *Is’hoqxon To‘ra Ibrat, “Tarixi Farg‘ona”, tarixiy manba, Qo‘qon xonligi, Xudoyorxon, Musulmonqul, Rossiya imperiyasi istilosi, mustaqillik.*

Аннотация: *В данной статье приводятся сведения о научно-историческом наследии известного узбекского просветителя Исхоккхона Тура Ибрата и его значении. В частности, произведение Ибрата «История Ферганы» («Тарихи Фаргона») освещается как важный источник по истории Кокандского ханства через призму деятельности последнего кокандского хана Худояр-хана.*

Ключевые слова: *Исхоккхон Тура Ибрат, «История Ферганы», исторический источник, Кокандское ханство, Худояр-хан, Мусульманкул, завоевание Российской империей, независимость.*

Abstract: *This article provides information on the scientific and historical heritage of the famous Uzbek enlightener Is’hoqxon To‘ra Ibrat and its significance. In particular, Ibrat’s work History of Fergana (Tarixi Farg’ona) is highlighted as an important source on the history of the Kokand Khanate, specifically in connection with the activities of the last Khan of Kokand, Khudayar Khan.*

Keywords: *Is’hoqxon To‘ra Ibrat, History of Fergana (Tarixi Farg’ona), historical source, Kokand Khanate, Khudayar Khan, Musulmonqul, Russian Empire conquest, independence.*

Is’hoqxon To‘ra Junaydullo xo‘ja o‘g‘li Ibrat (1862 – 1937) – taniqli o‘zbek ma’rifatparvari, jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri, shoir, tarixchi, pedagog, tarjimon-poliglot va Farg‘ona vodiysidagi ilk matbaachilardan biri hisoblanadi.

Is’hoqxon Ibratning olib borgan faoliyati ko‘lamining kengligi, yaratgan asarlari, vatan, xalq, millat istiqboli uchun fidoyiligi sababidan Turkiston jadidchilik harakati tarixida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Obidjon Mahmudovlar bilan bir qatorda turgan arboblardan biri.

Allomaning tarjimai holini to‘laroq yoritishda uning “Lug‘ati sittat as-sina”, “Jome ul-xutut”, “Tarixi Farg‘ona”, “Mezon uz-zamon”, “San`ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” kabi ilmiy, pedagogik hamda badiiy asarlaridagi ma`lumotlar, Ibratni yaqindan bilgan zamondoshlarining xotiralari va o‘sha davr vaqtli matbuotida e`lon qilingan Is’hoqxon Ibrat haqidagi maqola va xotiralar muhim o‘rin tutadi.

Is’hoqxon To‘ra Ibratning boy ilmiy merosi nainki mamlakatimizda, hatto yaqin va uzoq xorijda ham keng o‘rganilmoqda. Xususan, “Mezon uz-zamon” asarining yapon olimlari bilan hamkorlikda nashr etilishi [1], she`rlarining salmoqli so‘zboshi bilan Turkiyada chop etilgani ushbu fikrimizning isbotidir.

Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari (1916) [2] Qo‘qon xonligi tarixi haqida muhim manba hisoblanadi. Asarda xonlik tarixi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Shuningdek, “Tarixi Farg‘ona” asarida Qo‘qon xonligini boshqargan hukmdorlar faoliyati haqida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan.

“Tarixi Farg‘ona” asarida Qo‘qon xonligining so‘nggi hukmdorlaridan bo‘lgan Xudoyorxon (1845 – 1858, 1862 – 1863, 1865 – 1875) hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Xususan, Xudoyorxon Qo‘qon xonlaridan bo‘lgan Sheralixon (1842 – 1845)ning farzandi ekanligi, onasi esa qirg‘iz ayoli bo‘lganligi haqida ma’lumotlar berilgan: “Sheralixonning besh o‘g‘il farzandi bo‘lib, birinchi xotinidan tug‘ilgan farzandlari Sarimsoqbek, Sultonmurodbek va Xudoyorxon edilar. Ikkinchi xotinidan Mallaxon va So‘fibek o‘g‘illari bor edi. Xotinlarining har ikkisi ham qirg‘iz qizi edi” [3, 16].

Ma’lumki, XIX asr 50-yillarida Qo‘qon xoni Xudoyorxon va mingboshi ya’ni amalda xonlikni boshqarayotgan Musulmonqul o‘rtasida munosabatlar keskinlashadi. Musulmonqulga qarshi muxolifat kuchlar Xudoyorxonni ham xonlikda Musulmonqul olib borayotgan ishlarining salbiy oqibatlarini tushuntirish orqali o‘zlariga ittifoqchi qilib olishga urinishadi. Shunday qilib maxfiy ravishda Xudoyorxon bilan ittifoq tuzib, uni o‘z tomonlariga og‘dirishib, o‘z maqsadlariga erishadilar.

Tarixiy manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Musulmonqul 1852-yil 16-aprelda 30 mingga yaqin askar va 8 ta to‘p bilan xonlikga bo‘ysunishdan bosh tortgan Toshkent ustiga yurish qiladi. Toshkentda qushbegi Nurmuhammad mudofaa choralarini ko‘rib qo‘ygan edi [4, 18]. Ayni vaqtda Musulmonqulga qarshi bo‘lgan kuchlar ham u bilan birlashgan edi. Musulmonqulga tarafdor bo‘lgani uchun Turkiston begi Imombiy Toshkentga chaqirilib qatl qilinadi. Uning o‘rniga Yusufbek tayinlanadi. Musulmonqul askarlari bilan Toshkent qo‘shinlari o‘rtasida Chirchiq bo‘yida jang bo‘lib o‘tadi. Jang vaqtida Xudoyorxon Nurmuhammad tomonga o‘tadi. Bu voqeadan so‘ng Qo‘qon qo‘shinlari o‘rtasida ikkilanish paydo bo‘ladi. Natijada, qo‘qonliklar chekinadi. Toshkent qo‘shinlari Musulmonqul askarlarini quvib yuboradi. Musulmonqulning o‘zi esa qochib, qirg‘izlar orasiga kirib yashirinishga urinib ko‘radi. Biroq u xon askarlari tomonidan ta’qib etib kelindi va Namangan viloyatining Uychi qishlog‘ida qo‘lga olinadi va Qo‘qonda qatl etiladi.

“Tarixi Farg‘ona” asarida XIX asr 50-yillarida xonlikdagi taxt uchun kurashlar, Xudoyorxon tomonidan uyushtirilgan qipchoqlar qirg‘ini, Musulmonqul mingboshining qatl qilinish jarayoniga batafsil to‘xtalib o‘tilgan: “Xon ittifoq qilib, qipchoqiy va qirg‘iziyni surub, Bilqillama degan joygacha quvub, shahardan chiqardilar. Ul joyda qitoli azim va harbi alim qilib, oxiri kor Musulmonqulini asir qilib olub, temir qafasga solib, darvozaga osib qo‘yub, Xudoyorxon julusining o‘n ikkinchi sanasinda muni qatl qildilar. So‘ngra xonning hukumati baistiqlol bo‘ldi” [3, 18].

XIX asr ikkinchi yrmidan boshlab Qo‘qon xonligining siyosiy ahvoli yanada og‘irlashgan. Rossiya imperiyasi xonlikga nisbatan o‘zining bosqinchilik yurishlarni kuchaytirgan. 1864-yilda rus qo‘shinlari Qo‘qon xonligiga qarashli Avliyoota, Turkiston va

Chimkent shaharlarini, 1865-yilda Toshkentni bosib olgan. Bu haqida Is'hoqxon Ibrat shunday bayon qilgan: "Alimqul sar-askar bo'lub, tajdidi unvon berilub, amirlashkar laqab bo'lub, mundin so'ng Alimqul ismi matruk qoldi, amirlashkar bo'ldi. Yurtni saranjomg'a solib, fursat o'tkuzmay, Rusiya Turkistong'a keldi, deb xabar keldi. Amirlashkar Toshkandga keldi. Shodmonxo'jani o'ddurdi. O'rnig'a Normuhammad dodxohni voliyi Toshkand qildi. Davlat tojik degan kishini Turkistong'a hokim qilib yubordi. O'zi Xo'qandga qaytdi. Mazkur tojik Turkistong'a kelishi ilan atrofdagi elatiyni g'orat qilib, talon-taroj etib, chopdi. Bu badafqol shumlig'idan jamki g'azotiy Rusiyaga tobe bo'ddi, kelmakni xohladi. Oz muddatda, ozgina o'tmay Rusiya Turkistonga kirdi. Turkiston va Avliyoota Rusiya tasarrufiga (o'tdi). Andan Chimkandga qasd etgani amirlashkarg'a eshitildi. Xo'qand askari ilan qish vaqtida Chimkandga keldi. Anda Rusiya askari Turkistondan chiqg'on yo'q ekan" [3, 24].

1872 – 1876-yillarda bo'lib o'tgan, 1875-yilda butun Qo'qon xonligini qamrab olgan "Po'latxon qo'zg'oloni" natijasida Xudoyorxon oila a'zolari va a'yonlari bilan qochib, 1875-yil 6-avgust kuni Xo'jandga kelgan, so'ngra Toshkentga yo'l olgan. U yerda general-gubernator Kaufman bilan uchrashgan va Orenburgga jo'natib yuborilgan. Rossiya imperiyasi hukumati Xudoyorxonni "o'z himoyasiga olgan" [5, 175-176].

1876-yil 18-fevralda Rossiya imperiyasi podsho ma'muriyati Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasiga qo'shib olinganligini e'lon qilgan. 19-fevralda sobiq Qo'qon xonligi hududini o'z ichiga olgan Farg'ona viloyati tuzilgan va Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan. Rossiya imperiyasi sarkardasi Mixail Skobelev viloyatning harbiy gubernatori etib tayinlangan" [5, 173].

Is'hoqxon Ibrat Qo'qon xonligi tugatilish jarayonini quyidagicha ta'riflaydi: "Xo'qand xonlig'i Qoshg'ar va Pomir, ya'ni Shag'non hududig'acha O'rol ko'lina muttasil o'lub, butun Sayhun daryosini komilan shomil o'lub, 1876-milodiyda Rusiya qo'lig'a o'tub uni boshqaruviga qoldu" [3, 5].

Is'hoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida Xudoyorxonning so'nggi kunlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi: "Anda (Eronda demoqchi) Amir Nasriddin shoh ekan. Anga xat yuborib so'zlashganda, xonni kirmakig'a qabul qilmay, afg'on amiri Sheralixon ham olmay, to'g'ri Afg'onistonning ichi ila Peshovar shahrig'a yurib, Peshovarg'a kirganda hamshaharlar istiqbol qilib, to'g'ri Peshovarg'a kirib, Go'rkand degan eski o'rdag'a tushgan ekan" [3, 32-34]. Ibratning yozishicha, shu yerdan xon Ahmadobodga, so'ngra Bombeyga, nihoyat Jidda orqali Makkai mukarramaga borgan. Harqalay, Xudoyorxonning izidan hajga borgan va xonni ko'rgan ko'plab kishilar bilan suhbatlashgan, xonning xorijdagi hayotiga oid tafsilotlarni aniqlagan andijonlik Mulla Muhammad Umarbek bergan ma'lumotlarga asoslanganini hisobga olsak, xonning Makkai mukarramagacha bo'lgan safar yo'nalishi haqidagi Is'hoqxonning fikrlari ishonarli, deyishga asos bor.

Xudoyorxon haj ziyoratiga borish jarayonida ham, haj arkonlarini ado etgandan keyin ham uning boshiga ko'p musibatlar tushadi. Xudoyorxon hajga borish vaqtida o'zi va hamrohlarining tirikchiligi uchun zarur bo'lgan asosiy mablag'idan mahrum bo'lgan. Lekin xonga sadoqatidanmi yoki unga rahmi kelganidanmi, Bombeyda istiqomat qilayotgan farg'onaliklar unga 1000 rupiy pul jamlab berib, haj yo'liga solib yuborganliklarini

Is’hoqxon Ibrat Mulla Muhammad Umarbek Hoji tilidan bayon etadi. Yo‘l-yo‘lakay o‘zining hamyurtlaridan hoji Muhiddin Buxoriy, hoji Yusufali Marg‘inoniy, Qori Abdulhakim Marg‘inoniy, hoji Sodiq Konibodomiy va boshqalar bilan uchrashib, ulardan iltifot ko‘rgan xon Jidda orqali Makkai mukarramaga yetib oladi. Haj ruknlarini ado etib, haj muddati tugagandan keyin yana boshiga ketma-ket kulfatlar tushadi. Makkada, haram yaqinidagi eski bir o‘rdada hoji Shahid Kalon eshon Namangoniy va uning farzandlari Yusufxon to‘ra hamda Omon xalifa bilan birgalikda istiqomat qilib, har kuni besh vaqt namozni haramning o‘zida ado etib yurgan kezida ilgari xonning Namangan tarafdagi soliq yig‘uvchilaridan bo‘lgan va egri qo‘llikda ayblanib, mol-mulki musodara etilib, xonlik hududidan badarg‘a qilingan Sodiq sarkor Ortiq sarkor o‘g‘li o‘ch olish niyatida ataylab Xudoërxon orqasidan kelib, katta bir tosh bilan urib, ikki tishini sindiradi. Bu ish yuzasidan tergov bo‘lib, aybdorni 4 yil qamoqqa hukm qilayotganlarida xon “mening da’vom yo‘q”, deb unga beriladigan jazoni ko‘p jihatdan yengillashtirishga erishadi [3, 32-34].

Xudoyorxonning keyingi hayoti haqida ham Is’hoqxon Ibrat “Tarixi Farg‘ona”da to‘laligicha bayon qilgan: “Bu tariqa Makkada turub osoyishta ekan, Nurmuhammadni (ng) targ‘ibiga unab, oxiri yna Hinduston va Afg‘on ilan yurib, daryoyi Amuga yqin Karrux degan yerda eshoni shahid degan Islom shayxni katta murshidlari xalifa Dorulamon degan eshon xonaqohlariga kelib, anda hujra olib, istiqomat qilub turub, anda Nurmuhammad sharbatdor mamlakatga xabar olib kelmoqqa ketganda xon yog‘rin elkasiga o‘sma yara chiqib, Afg‘on hakimlari kesmak bo‘lganda, hakimlar doruyi behush bermog‘ bo‘lganlarida, qabul qilmay: “Man umrumda behush bo‘lgan emasman, hushyor turganimda kesaveringlar” degan ekan. Anda o‘tquzub, qo‘yib, piyolani (ng) og‘zidek joyini kesib olib, doru qo‘yub muolaja qilganda bir oyda tuzalub, ichinda andak joy qolganda xonni betobligi daraja qilib ekan, anxo‘ylik Muhammadjon hoji yaxshi parvo qilib turganda o‘shal betobligidan sihat bo‘lmay, ahiyri 1299- hijriyda (1882-yil) Karruxda vafot bo‘ldilar, rahmatullohi alayhi rahmatan vosi’atan. O‘shal xodim anxo‘ylik Jiddada bizlar ilan yetmish kun bir qo‘shda bo‘lub turib: “O‘zum qo‘limda qo‘ydim, der edi. Xon qabridan bir daraxt ko‘kardi, qayu xil daraxtligini bilib bo‘lmaydur. Bir yil qabrda yotdim, so‘ngra hajga iroda qilib keldim” deb hikoy qilur edi. Bar har hol xonni Xo‘qanddan chiqib, O‘rinburg‘da turib, andin hajga borub, qaytub kelib vafotlarig‘acha o‘rtasi sakkiz yil bo‘lub, to‘qqizinchi yilida vafot bo‘lgan ekan” [3, 32-34].

Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari XVIII – XIX asr 70-yillarida O‘rta Osiyoning yirik davlatlaridan bo‘lgan Qo‘qon xonligi tarixi tarixi haqida muhim manba hisoblanadi. Asarda ko‘plab tarixiy ma’lumotlar bilan bir qatorda, bir qaror tarixiy shaxslar haqida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan. Xususan, xonlikning so‘nggi hukmdorlardan biri Xudoyorxonning hukmronlik davridagi xonlikdagi siyosiy-ijtimoiy hayot, xonlikning tugatilish jarayoni va Xudoyorxon hayotining so‘nggi kunlariga oid ma’lumotlar e’tiborga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исҳоқхон тўра ибн Жунайдулло хўжа. Мезон уз-замон. – Тошкент-Токио, 2001.

2. Исоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона / Нашрга тайёловчилар Ҳ.Бобобеков, Маҳмуд Ҳасаний, Мерос туркуми. – Т., 1991. – Б. 268–327.; Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 87 б.

3. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 87 б.

4. Қўқон хонлиги тарихи очерклари (1709–1876). – Наманган, 1994. – 135 б.

5. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O‘. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: Sharq, 2010. – 366 b.

6. Бобобеков Ҳ. Н. Ибратнинг “Тарихи Фарғона” асарига ёзилган сўзбоши. – Т.: Камалак, 1991. – 268 б.

7. Долимов У., Жабборов Н. Исҳоқхон Тўра Ибрат. – Т.: Маънавият, 2005. – 255 б.

8. Воҳидова К. А. Исҳоқхон Жунайдуллоххўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий – илмий мероси: тарих фан. номз. дисс... – Т.: ЎзР ФА Тарих институти, 2002. – 186 в.

9. Қозоқов Т. XX аср бошларида Фарғона водийсидаги ижтимоий-сиёсий ахвол ва жадидчилик ҳаракати: тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссер. – Тошкент, 2001. – 185 в.